



Abdujabborova Marg'uba Maxammadjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi

Margubaabdujabborova8@gmail.com

**KIMYO YO'NALISHIDAGI TALABALARGA CHET TILINI SAMARALI O'QITISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODLARDAN UNUMLI
FOYDALANISH**

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va ularning qo'llanilishining foydasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: aqliy hujum, tezkor savol, klister usuli, insert metodi, pantomiman usuli.

Annotation: This thesis discusses modern methods of teaching English and the benefits of their use.

Keywords: mental attack, quick question, cluster method, insert method, pantomima method.

Hozirgi davr ta'lif taraqqiyoti yangi yo'naliш innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion - inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan[1]. Ilmiy yo'naliшlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"-bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lif, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi[2]. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobjiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Ta'lif sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi. Ingliz tili o'qitishda zamonaviy metodlarning qo'llanishi darsni qiziqarli va samarali ta'sir o'tkazadi:

1. "B.B.B" (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida talabalarning matnni tushinishini, uni tahlil qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.
2. Aqliy hujum" (Brainstorming)- g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati talabalarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga: g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.
3. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish talabalar hukmiga havola qilinadi. Bu usul talabada fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.
4. "Tezkor savol" (Quick answers) Bunda talabalarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
5. "Pantomima" (Pantomime)- turli xildagi so'zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib talabalar charchagan paytlarida foydalansha maqsadqa muvofiq bo'ladi.
6. "Hikoya zanjiri" (A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod talabalarning og'zaki nutqini rivojlantiradi.



7. “Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda , talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8. ”Kuiz kartochkalar” (Quiz cards)- bunda talabalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalarlar bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta’minlaydi, bu esa vaqt ni ancha tejaydi.

9. ”Klaster” usuli. Klasterlarga ajratish talabalarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg’otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo’shish uchun samarali usuldir.

10. Insert”metodi. Bunda talabalarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va talabalardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni, kuzatuvchanlikni va tushunishni qo’llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi[3].

Demak, yuqorida ko‘rsatilgani kabi har bir metodning kimyo yo‘nalishidagi talabalarga chet tillarni o‘rgatishda samarali usullari bor ekan. o‘qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O‘qituvchi hamda talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda chet tillarini o‘rgatishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda, ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni tez va samarali bo‘lishiga olib keladi. Xususan, texnologik vositalar chet tili o‘rganishning har bir ko‘nikmalari(o‘qish, yozish , tinglab tushunish va gapirish)ga qo‘l keladi. samarali foydalanangan holda yoshlarga chet tillarini mukammal o‘rgatish orqali yurtimiz ravnaqiga o‘z hissamizni qo’shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yi
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. “Ingliz tili darslarida qo’llaniladigan interfaol usullar”(uslubiy qo’llanma) , Navoiy. 2006, 40 bet
3. Yoqubov I. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”, (o‘quv qo’llanma). Toshkent,Sharq nashriyoti. 2003-yil